

TIJORAT BANKLARI RESURSLARI BARQARORLIGINI OSHIRISHDA JALB QILINGAN MABLAG'LARNING ROLI

THE ROLE OF ATTRACTED FUNDS IN ENHANCING THE STABILITY OF COMMERCIAL BANKS' RESOURCE BASE

[1]Jo'rayev Isroil Ibroximovich

[1]*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrasi professori.*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini ta'minlashda jalb qilingan mablag'larning iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Davlat ulushi mavjud va boshqa banklar moliyalashtirish tarkibi o'rtasidagi tafovutlar hamda tashqi qarz resurslarining saqlanib qolayotgan ahamiyati muhokama qilingan. Tadqiqot yakunida depozit bazasini sifat jihatdan mustahkamlash, muddat va valyuta nomutanosibligini pasaytirish, mablag' jalb qilish manbalarini diversifikatsiyalashga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the economic significance of borrowed and attracted funds in ensuring the stability of the resource base of commercial banks in Uzbekistan. The study discusses differences in funding structures between state-owned and other commercial banks, as well as the continued importance of external borrowing. Based on the research findings, practical recommendations are developed to strengthen the quality and stability of the deposit base, reduce maturity and currency mismatches, and diversify funding sources.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banki, resurs bazasi, jalb qilingan mablag'lar, depozitlar, muddatli omonat, barqaror moliyalashtirish, likvidlik, kredit–depozit nisbati, valyuta riski.*

❖ *commercial banks, funding stability, attracted funds, deposits, maturity structure, liquidity, funding diversification.*

Kirish.

Bank resurslarining barqarorligi moliyaviy vositachilik jarayonining uzluksizligi va bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati bilan uzviy bog'liq. Kredit portfeli o'sishi banklar uchun daromad manbai bo'lsa, ushbu portfelni moliyalashtiruvchi mablag'larning muddati, valyuta tarkibi, konsentratsiyasi va qiymati bankning likvidlik holatini belgilaydi. Shu sababli jalb qilingan mablag'lar tahlilida faqat ularning hajmini ko'paytirish masalasi bilan cheklanish to'g'ri emas, balki resurslarning iqtisodiy barqarorligini baholash ham zarur hisoblanadi.

O'zbekistonda bank tizimining kreditlash faoliyati izchil rivojlanmoqda. Kredit qo'yilmalari hajmining depozitlardan sezilarli darajada yuqori bo'lishi banklarni moliyalashtirishda tashqi kredit liniyalari, davlat resurslari va boshqa qarz manbalarining o'rni katta ekanini ko'rsatadi. So'nggi yillarda aholi omonatlarining o'sishi, milliy valyutada jamg'arishga bo'lgan qiziqishning ortishi hamda depozitlarning muddatlar bo'yicha

tarkibi yaxshilanishi ichki resurslar roli kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Biroq bu jarayon banklarning barcha guruhlarida bir xil kechmayapti.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, depozitlar umumiy hajmining oshishi parallel ravishda resurs bazasining barqarorlashayotganligini anglatmaydi. Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, yirik korporativ omonatchilar konsentratsiyasi, jamg‘armalarning valyutasi va muddati, tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirish imkoniyati kabi omillar jalb qilingan mablag‘lar sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bankning joriy likvidligi yuqori bo‘lishi uning uzoq muddatli resurslar bilan to‘liq ta’minlanganini anglatmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Amerikalik iqtisodchilar Duglas Daymond va Filip Dibvig “Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity” nomli tadqiqotida bank depozitlarining iqtisodiy tabiatini likvidlikka bo‘lgan talab va moliyaviy vositachilik jarayonlari orqali asoslab bergan. Ularning nazariy xulosasiga ko‘ra, depozit shartnomalari omonatchilarning mablag‘lardan foydalanish ehtiyojini qondirish bilan birga, banklarga uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish imkonini beradi. Biroq omonatchilarning bankka ishonchi pasayganda mablag‘larni bir vaqtning o‘zida qaytarib olish holati yuzaga kelib, bank likvidligiga jiddiy bosim o‘tkazishi mumkin. Mualliflar depozitlarni sug‘urtalash muayyan sharoitlarda bunday beqarorlikni kamaytirishini ko‘rsatgan. Bu nazariya resurs bazasi barqarorligi depozitlar hajmidan tashqari omonatchilar ishonchi va institutsional himoya mexanizmlariga ham bog‘liqligini asoslaydi [1].

Itamar Dreksler, Aleksi Savov va Filipp Shnablning 2017-yilda “The Quarterly Journal of Economics” jurnalida e’lon qilingan “The Deposits Channel of Monetary Policy” tadqiqotida bank depozitlari pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etilgan. AQSh banklari ma’lumotlari asosida federal fondlar stavkasi oshganda depozit stavkalari bozor foiz stavkalariga nisbatan sekinroq moslashishi, depozitlar bo‘yicha spredlar kengayishi va bank tizimidan mablag‘lar chiqib ketishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Mazkur ta’sir depozit bozorida konsentratsiya yuqori bo‘lgan sharoitda kuchliroq namoyon bo‘lgan. Demak, bank resurslari barqarorligida depozitlarning muddati va tarkibi bilan bir qatorda foiz siyosati, raqobat hamda mijozlarning muqobil jamg‘arish vositalariga munosabati ham muhimdir [2].

Kashyap, Rajan va Stein depozit jalb qilish hamda kredit liniyalarini taqdim etishning umumiy iqtisodiy asosi likvidlikni ta’minlash ekanini ta’kidlaydi [3]. Mazkur yondashuv bank passivlarini aktivlardan ajratilgan holda emas, balki balansning har ikki tomoni o‘rtasidagi muvofiqlik nuqtayi nazaridan o‘rganish zarurligini asoslaydi. Berger va Bouwman banklarning likvidlik yaratish faoliyati bank qiymati hamda biznes modeli bilan bog‘liqligini empirik tahlil qilgan [4].

Bazel qo‘mitasining sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentiga (NSFR) oid standartida moliyalashtirish manbalari barqarorligi majburiyatlarning ishonchliligi, mablag‘larni jalb qilish muddati va bank aktivlarining likvidlik xususiyatlari asosida baholanadi [5].

A. M. Rahimov tijorat banklarining depozit bazasi va uni kengaytirish masalalarini o‘rganib, kreditlash imkoniyatlari jalb qilingan mablag‘larning nafaqat hajmi, balki muddatlar bo‘yicha barqarorligiga ham bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uzoq muddatli kreditlashni kengaytirish uchun banklarda tegishli muddatdagi resurs bazasini shakllantirish, yuridik shaxslar depozitlari va aholi omonatlarini mutanosib rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois jalb qilingan mablag‘larning barqarorligini baholashda depozitlarning umumiy hajmi bilan cheklanmay, ularning muddatlari va kredit

portfelini moliyalashtirish imkoniyatlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarur [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda statistik guruhlash, dinamik qatorlarni qiyoslash, tarkibiy tahlil, mutlaq va nisbiy o'zgarishlarni hisoblash, grafik tasvirlash hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni institutsional sharhlash usullaridan foydalanildi.

Jalb qilingan mablag'lar tushunchasi depozitlar, banklararo jalb qilingan resurslar, tashqi va ichki kredit liniyalari, chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari hamda boshqa qarz majburiyatlarini qamrab oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimi moliyaviy ko'rsatkichlarida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. 2020-yil yakunida depozitlar 114 747 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakunida 417 258 mlrd. so'mga yetgan. Mutlaq o'sish 302 511 mlrd. so'mni yoki 3,64 baravarni tashkil etgan. Shu davrda jami majburiyatlar 307 770 mlrd. so'mdan 789 424 mlrd. so'mga, kredit qo'yilmalari esa 276 975 mlrd. so'mdan 604 002 mlrd. so'mga oshgan [7; 8].

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklari majburiyatlari, depozitlari va kreditlari dinamikasi (mlrd. so'm, yil oxiriga) [7; 8]

Yil	Jami majburiyatlar	Depozitlar	Kreditlar	Depozit / majburiyat, %	Kredit / depozit, %
2020	307 770	114 747	276 975	37,3	241,4
2021	374 005	156 190	326 386	41,8	209,0
2022	477 181	216 738	390 049	45,4	180,0
2023	555 078	241 687	471 406	43,5	195,0
2024	654 538	308 692	533 121	47,2	172,7
2025	789 424	417 258	604 002	52,9	144,8

1-jadval ma'lumotlari moliyalashtirish manbalari tarkibida depozitlar salmog'i oshganini ko'rsatadi. 2020-yilda depozitlar jami majburiyatlarning 37,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 52,9 foizga yetgan. Demak, tijorat banklari aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda depozitlarga tobora ko'proq tayanmoqda. Shunga qaramay, banklar majburiyatlari tarkibida kreditlar va boshqa qarz mablag'larining ulushi ham sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.



1-rasm. O'zbekiston bank tizimida depozitlar, kreditlar va jami majburiyatlar dinamikasi (trln. so'm, yil oxiriga) [7; 8]

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimida kreditlarning depozitlarga nisbati 2020-yildagi 241,4 foizdan 2025-yil yakunida 144,8 foizgacha pasaygan. Bu depozitlar hisobidan moliyalashtirishning ahamiyati ortganini ko'rsatadi. Biroq mazkur o'zgarish kredit portfeli faqat depozitlar hisobidan moliyalashtirilayotganini anglatmaydi. Kredit qo'yilmalari va depozit qoldiqlari bank balansining turli ko'rsatkichlari bo'lib, ularni to'liq tenglashtirib bo'lmaydi.

Depozitlarning yillik nominal o'sish sur'atlari ham bir tekis emasligi namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2021-yilda 36,1 foiz, 2022-yilda 38,8 foiz, 2023-yilda 11,5 foiz, 2024-yilda 27,7 foiz va 2025-yilda 35,2 foizni tashkil etgan. Ayniqsa 2023-yildagi pasayish resurslarni jalb qilish dinamikasi tashqi va ichki sharoitlarga ta'sirchan ekanligini ko'rsatadi. Bunday o'zgaruvchanlik faqat yil oxiridagi qoldiqqa emas, depozitlarning mavsumiy va oylik harakatiga ham e'tibor berish zarurligini bildiradi.

Depozitlarning muddati resurs bazasi barqarorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichdir. Talab qilib olinguncha depozitlar to'lov aylanmasi uchun qulay va nisbatan arzon manba bo'lsa-da, ularning katta qismi bir vaqtda qaytarib olinganda likvidlik bosimi kuchayadi. Bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan mablag'lar esa bankka resurslardan foydalanishni uzoqroq davrga rejalashtirish imkonini beradi.

2-jadval

O'zbekiston bank tizimi depozitlarining muddatlar bo'yicha tarkibi (foizda, yil oxiriga) [9]

Yil	Jami	Talab qilib olinguncha	1–30 kun	31–180 kun	181–365 kun	1 yildan ortiq
2020	100,0	42,8	5,3	12,4	12,0	27,5
2021	100,0	42,3	3,4	12,0	13,3	28,9
2022	100,0	42,7	2,1	11,8	12,4	31,0
2023	100,0	35,3	2,6	12,4	14,5	35,3
2024	100,0	32,1	3,8	10,5	15,0	38,7
2025	100,0	30,2	3,3	13,8	15,1	37,6

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, talab qilib olinguncha depozitlar 2020–2025-yillarda mutlaq hajmda 49,2 trln. so'mdan 125,9 trln. so'mga oshgan bo'lsa-da, jami depozitlardagi ulushi 42,8 foizdan 30,2 foizgacha pasaygan. Bir yildan ortiq muddatli depozitlar shu davrda 31,6 trln. so'mdan 156,7 trln. so'mgacha ko'payib, ulushi 27,5 foizdan 37,6 foizgacha oshgan. Ushbu o'zgarish resurs bazasida nisbatan uzoq muddatli depozitlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.



2-rasm. O'zbekiston bank tizimi depozitlarining muddatlar bo'yicha dinamikasi (foizda, yil oxiriga) [9]

2-rasmdan ko‘rinadiki, bir yildan ortiq muddatli depozitlar ulushi 2020-yildagi 27,5 foizdan 2025-yilda 37,6 foizga oshgan. Ayni paytda talab qilib olinguncha depozitlar ulushi 42,8 foizdan 30,2 foizgacha kamaygan. Biroq uzoq muddatli depozitlar ulushi yillar kesimida bir xil sur’atda o‘smagan; xususan, 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 1,1 foiz bandga qisqargan.

“Bir yildan ortiq muddatli” deb tasniflangan depozitlar bankda albatta shu muddat davomida saqlanishini anglatmaydi. Omonatchilarning mablag‘larni muddatidan oldin yechib olish imkoniyati, foizlarni kapitallashtirish, shartnomalarni avtomatik uzaytirish va omonatchilar konsentratsiyasi resurslarning amaldagi barqarorligiga ta’sir qiladi.

Depozitlar tarkibini tahlil qilishdagi yana bir muhim jihat — ularni valyutalar bo‘yicha tasniflashdir. Milliy valyutadagi resurslar ulushining o‘sishi banklarning tashqi valyuta bozorlariga sezgirligini kamaytirishi mumkin. Biroq valyuta xatari nafaqat majburiyatlar hajmi, balki bank aktivlari va majburiyatlarining valyutalar bo‘yicha o‘zaro mosligi bilan ham baholanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yil yakunida jami depozitlarning 43,1 foizi, 2025-yil yakunida esa 20,9 foizi xorijiy valyutada shakllangan.

3-jadval

O‘zbekiston bank tizimi depozitlarining valyutalar bo‘yicha tarkibi (mlrd. so‘m, yil oxiriga) [10]

Yil	Jami depozit, mlrd.so‘m	Milliy valyutada, mlrd.so‘m	Xorijiy valyutada, mlrd.so‘m	Milliy valyuta ulushi, %	Xorijiy valyuta ulushi, %
2020	114 747	65 318	49 429	56,9	43,1
2021	156 190	95 578	60 612	61,2	38,8
2022	216 738	131 795	84 943	60,8	39,2
2023	241 687	169 516	72 171	70,1	29,9
2024	308 692	231 234	77 458	74,9	25,1
2025	417 258	329 922	87 336	79,1	20,9

Depozitlarning valyuta tarkibidagi o‘zgarishlar ikki bosqichda namoyon bo‘lgan. 2020–2022-yillarda xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi 38,8–43,1 foiz oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, 2023–2025-yillarda 29,9 foizdan 20,9 foizgacha pasaygan. Milliy valyutadagi depozitlar 2020-yil yakunida 65,3 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakunida 329,9 trln. so‘mga yetgan. Bu o‘zgarish milliy valyutada jamg‘arishning ahamiyati ortganidan dalolat beradi.

Valyuta tarkibi dinamikasini baholashda valyuta kursi o‘zgarishlarini ham hisobga olish zarur. Xorijiy valyutadagi depozitlarning jami depozitlardagi ulushi pasayishi ularning so‘mdagi hajmi qisqarganini anglatmaydi. Masalan, 2025-yilda xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi 77,5 trln. so‘mdan 87,3 trln. so‘mga oshgan bo‘lsa-da, umumiy depozitlardagi ulushi kamaygan.

Banklar resurs bazasi diversifikatsiyasini chuqurroq baholash uchun depozitlarning boshqa qarz manbalariga nisbatini ham tahlil qilish lozim. 2025-yil yakunida bank tizimi jami majburiyatlari 789,4 trln. so‘mni tashkil etgan. Shundan 417,3 trln. so‘m depozitlar, 247,7 trln. so‘m kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha qarzlar, 37,2 trln. so‘m esa chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Mazkur tarkib depozitlar bank tizimining asosiy moliyalashtirish manbai bo‘lib qolayotganini, biroq jalb qilingan qarz resurslarining ham sezilarli ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha qarzlarning yuqori hajmi banklarning tashqi va

institutsional moliyalashtirish manbalariga bog‘liqligini baholash zaruratini kuchaytiradi. Qimmatli qog‘ozlar orqali mablag‘ jalb qilish esa resurs bazasini diversifikatsiyalash va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bois banklar majburiyatlari tarkibini optimallashtirishda moliyalashtirish manbalarining qiymati, muddati, valyuta tarkibi va qayta moliyalashtirish xatarlarini kompleks baholash muhim ahamiyatga ega.

4-jadval

O‘zbekiston bank tizimi majburiyatlarining tarkibi (yil boshiga) [11]

Majburiyat turi	01.01.2025, mlrd. so‘m	01.01.2026, mlrd. so‘m	01.01.2025, %	01.01.2026, %
Depozitlar	308 692	417 258	47,2	52,9
Kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha qarzlar	234 667	247 691	35,9	31,4
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	29 095	37 246	4,4	4,7
Rezident va norezident banklar oldidagi qarzlar	41 436	47 079	6,3	6,0
Subordinatsiyalangan qarzlar	11 299	11 972	1,7	1,5
Boshqa majburiyatlar (qoldiq)	29 349	28 178	4,5	3,6
Jami majburiyatlar	**654 538**	**789 424**	**100,0**	**100,0**

4-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda depozitlarning bank majburiyatlari tarkibidagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Shunga qaramay, kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha qarzlar ulushi yuqoriligicha qolgan: mazkur ko‘rsatkich 2024-yil yakunidagi 35,9 foizdan 2025-yil yakunida 31,4 foizgacha pasaygan. Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar ulushi esa 4,4 foizdan 4,7 foizga oshgan.

Jalb qilingan mablag‘lar portfelini baholashda resurslarning qiymati ham muhimdir. Bank tomonidan depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining tez oshirilishi qisqa muddatda mablag‘ jalb qilishni jadallashtirishi mumkin. Biroq bu keyinchalik sof foiz marjasiga bosim o‘tkazib, bankning moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli resurs siyosatida depozitlar hajmini oshirishdan ko‘ra muddati, qiymati va konsentratsiyasi bo‘yicha muvozanatli depozit bazasini shakllantirish ustuvor bo‘lishi lozim.

Bank tizimida kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlar turli bank guruhlariga bir xil darajada taalluqli emas. Davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfeli va uzoq muddatli loyihalar ulushining yuqoriligi kreditlarning depozitlarga nisbatiga ta’sir etadi. Boshqa banklar esa depozitlarga nisbatan muvozanatliroq kreditlash ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi mumkin.

5-jadval

Davlat ulushi mavjud va boshqa banklarda depozitlar hamda kredit–depozit nisbati [8]

Yil	Davlat ulushi bor banklar depozitlari	Boshqa banklar depozitlari	Davlat guruhi kredit/depozit, %	Boshqa banklar kredit/depozit, %
2023	124 305	117 381	268,1	117,7
2024	154 511	154 181	237,3	107,9
2025	212 671	204 588	190,2	97,5

2025-yil yakunida davlat ulushi mavjud banklarning depozitlari 212,7 trln. so‘mni, boshqa banklarda esa 204,6 trln. so‘mni tashkil etgan. Depozitlar hajmi nisbatan yaqin bo‘lsa-

da, kredit–depozit nisbati mos ravishda 190,2 va 97,5 foizni tashkil etgan. Bu davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfelini moliyalashtirishda depozitlardan tashqari manbalar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Davlat ulushi mavjud banklarning mijozlar bazasi, yirik investitsiya loyihalari va tashqi kredit liniyalari bilan bog'liq xususiyatlari mazkur banklarda kreditlarning depozitlarga nisbatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois banklarda depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi bilan birga kreditlarning muddati, resurslarning valyuta tarkibi va barqaror moliyalashtirish me'yorlarini baholash ham muhimdir.

Tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini baholashda faqat depozitlar dinamikasini o'rganish yetarli emas. Shu sababli 2024 va 2025-yillar yakuni bo'yicha bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq.

6-jadval

Bank tizimining likvidlik va barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichlari [12]

Ko'rsatkich	01.01.2025	01.01.2026
Yuqori likvid aktivlar, mlrd so'm	133 229	189 082
Yuqori likvid aktivlar / jami aktivlar, %	17,3	21,1
Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), %	193,8	207,5
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR), %	115,3	119,9
Tezkor likvidlik koeffitsiyenti, %	112,3	134,7

6-jadvaldan ko'rinadiki, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) 193,8 foizdan 207,5 foizga, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) esa 115,3 foizdan 119,9 foizga oshgan. Har ikkala ko'rsatkich bank tizimi darajasida belgilangan minimal me'yordan yuqori bo'lgan. Biroq tizim miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichlar alohida banklarning likvidlik holatini to'liq aks ettirmaydi: yirik omonatchilar konsentratsiyasi, resurslarning qiymati va likvid aktivlar taqsimoti banklar kesimida farqlanishi mumkin.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil bank tizimi resurs bazasida bir-birini to'ldiruvchi quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi:

depozitlarning majburiyatlardagi ulushi oshgan;

talab qilib olinguncha mablag'lar salmog'i kamaygan;

milliy valyutadagi depozitlar ustunligi ortgan;

kredit–depozit tafovuti qisqargan va bank tizimi likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilangan.

Shu bilan birga, uzoq muddatli depozitlar ulushi 2025-yilda biroz pasaygan, bank guruhlari o'rtasida sezilarli farqlar saqlanib qolgan va qarz mablag'lari majburiyatlar tarkibida hamon muhim o'rin tutmoqda.

Mijozlar bo'yicha depozitlar taqsimoti ham alohida e'tiborga loyiq. 2026-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining jami depozitlari 417 258 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shundan 160 401 mlrd. so'mi (38,4 foizi) jismoniy shaxslar, 256 857 mlrd. so'mi (61,6 foizi) yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri kelgan.

7-jadval

Depozitlarning mijozlar va banklar guruhi bo'yicha tarkibi (2026-yil 1-yanvar holatiga, mlrd. so'm) [13]

Banklar guruhi	Jami	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar, %	Yuridik shaxslar, %
Barcha banklar	417 258	160 401	256 857	38,4	61,6
Davlat ulushi mavjud banklar	212 671	74 696	137 974	35,1	64,9
Boshqa banklar	204 588	85 705	118 883	41,9	58,1

2026-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi depozitlarining 51,0 foizi davlat ulushi mavjud banklar, 49,0 foizi esa boshqa banklar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yuridik shaxslar depozitlarining tegishli guruhdagi ulushi birinchi guruhda 64,9 foiz, ikkinchisida 58,1 foizni tashkil etgan. Bu farq banklar depozit siyosati mijozlar tarkibi va mablag‘lar konsentratsiyasi hisobga olingan holda shakllantirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Jismoniy shaxslar depozitlarining ko‘proq qismi davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda, yuridik shaxslar depozitlarining ko‘proq qismi esa davlat ulushi mavjud banklarda jamlangan.

Olingan natijalar jalb qilingan mablag‘larni ko‘paytirish va resurs bazasini barqarorlashtirish o‘zaro bog‘liq, biroq bir xil tushunchalar emasligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda depozitlarning uch yarim baravardan ziyod ko‘payishi resurslar jalb qilish imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Ularning muddatlari, valyuta tarkibi va kreditlarga nisbati ham sifat o‘zgarishlarini aks ettiradi. Biroq mazkur o‘sishni faqat bitta omil, masalan, foiz stavkalari, omonatlarni kafolatlash tizimi yoki raqamli xizmatlar bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Birinchidan, depozitlarning ishonchliligi va muddati o‘rtasidagi farq. Bir yildan ortiq muddatli depozitning bank uchun ahamiyati shartnomada belgilangan muddat bilangina cheklanmaydi. Omonatchining mablag‘ni muddatidan oldin qaytarib olish huquqi, kompensatsiya shartlari, foiz stavkalarining o‘zgarishi va boshqa omonatlarga o‘tish imkoniyati uning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli resurslarni barqarorlashtirishda nafaqat uzoq muddatli depozit mahsulotlarini rivojlantirish, balki mijozlar bazasini kengaytirish va yirik omonatchilar konsentratsiyasini kamaytirish ham muhimdir.

Ikkinchidan, depozitlarning valyuta tarkibi. Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushining pasayishi dollarlashuv xatarini yumshatishi mumkin. Ammo bank aktivlari va majburiyatlarining valyuta tarkibi o‘zaro uyg‘un bo‘lmasa, valyuta nomutanosibligi saqlanib qoladi. Shuning uchun banklar so‘mdagi omonatlarni oshirish bilan birga xorijiy valyutadagi kreditlar, valyuta svoplari va valyuta likvidligiga bo‘lgan ehtiyojni muvofiqlashtirishi zarur.

Uchinchidan, kreditlash va depozitlar o‘rtasidagi tafovut. Kredit–depozit nisbati olti yil davomida sezilarli pasaygan bo‘lsa-da, 2025-yil yakunida 100 foizdan yuqori darajada qolgan. Bu kredit aktivlarini moliyalashtirishda tashqi qarz, qimmatli qog‘ozlar va boshqa majburiyatlar ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Tashqi resurslardan foydalanish o‘z-o‘zidan beqarorlik belgisi emas; bunda ularning muddati, valyutasi, qayta moliyalashtirish xatari va qiymatining aktivlarga muvofiqligi muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, omonatlarni himoya qilish institutining roli. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O‘RQ-1031-son “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek yuridik shaxslarning qonunda belgilangan omonatlarini kafolatlash tizimini nazarda tutadi. Bu banklarga ishonchni mustahkamlashning muhim institutsional omilidir [14].

Beshinchidan, bank guruhlariga mos resurs siyosati. Davlat ulushi mavjud banklarda depozitlar hajmi katta bo‘lsa-da, kredit–depozit nisbati boshqa banklardan sezilarli farq qiladi. Shuning uchun barcha banklarda aynan bir xil depozit strategiyasini qo‘llash yetarli samara bermasligi mumkin. Yirik korporativ kreditlash, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar va chakana bank xizmatlari uchun resurs jalb qilish kanallari, mijozlar tarkibi hamda likvidlikni rejalashtirish alohida muvofiqlashtirilishi lozim.

Xulosa va takliflar.

2020–2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklarining resurs bazasida depozitlar eng

yirik moliyalashtirish manbaiga aylandi. Tahlil qilinayotgan davrda depozitlar 114,7 trln. so‘mdan 417,3 trln. so‘mga ko‘paydi, ularning jami majburiyatlardagi salmog‘i esa 37,3 foizdan 52,9 foizga oshdi. Bu o‘zgarish banklarning ichki depozit resurslariga tayanishi kuchayganini ko‘rsatadi. Resurs bazasi barqarorligini yanada oshirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, bank boshqaruviga taqdim etiladigan resurs siyosati hisobotlarida depozitlar qoldig‘i bilan birga talab qilib olinguncha va uzoq muddatli depozitlar dinamikasini muntazam taqqoslash zarur. Bunda shartnomaviy muddatlar, yirik omonatchilarning mablag‘larni saqlash tarixi va qayta joylashtirish faolligi ham baholanishi lozim.

Ikkinchidan, milliy valyutadagi omonatlar ulushini oshirish siyosatini aktiv va passivlarning valyutalar bo‘yicha mosligi bilan uyg‘unlashtirish kerak. Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushining kamayishi ijobiy bo‘lsa-da, valyuta xatari faqat passivlar tarkibiga qarab baholanmaydi. Banklar valyutalar bo‘yicha likvidlik taqvimi va yirik to‘lovlar jadvalini muvofiqlashtirishi zarur.

Uchinchidan, mablag‘ jalb qilish kanallarini mijoz segmentlari kesimida diversifikatsiya qilish lozim. Jismoniy shaxslar, kichik biznes subyektlari, yirik korporativ mijozlar, obligatsiyalar va uzoq muddatli kredit liniyalari bo‘yicha konsentratsiyani nazorat qilish resurslarni qayta jalb qilish xatarini kamaytiradi. Diversifikatsiyaning maqsadi barcha manbalarni bir xil miqdorda ko‘paytirish emas, balki ular o‘rtasidagi xavfli o‘zaro bog‘liqlikni pasaytirishdir.

To‘rtinchidan, depozit portfeli sifatini baholashda foiz xarajatlarini resurslarning amaldagi saqlanish muddati bilan birgalikda tahlil qilish kerak. Faqat yuqori foiz stavkalari orqali jalb etilgan depozitlar qisqa muddatda ko‘payishi mumkin, biroq ularning qiymati bank daromadliligiga bosim o‘tkazadi. Shu bois xizmat ko‘rsatish sifati, depozit mahsuloti shartlarining shaffofligi va raqamli xizmatlar qulayligi ham resurs siyosatining muhim qismi bo‘lishi zarur.

Beshinchidan, davlat ulushi mavjud banklarda kredit–depozit nisbatining yuqoriligi hisobga olinib, resurslarning muddatlar bo‘yicha rejalashtirilishini chuqurlashtirish lozim. Boshqa banklarda esa chakana va korporativ omonatlar konsentratsiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Banklar guruhlari o‘rtasidagi farqni mutlaq ustunlik yoki kamchilik sifatida emas, balki moliyalashtirish modellaridagi farq sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, bank resurslari barqarorligi jalb qilingan mablag‘lar hajmining o‘sishigagina emas, balki depozitlarning muddatlari va valyuta tarkibining yaxshilanishi, kreditlash faoliyati bilan mutanosibligi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va likvidlik zaxiralarining yetarliligiga ham bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Diamond D. W., Dybvig P. H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // Journal of Political Economy. — 1983. — Vol. 91, № 3. — P. 401–419. — DOI: 10.1086/261155.

2. Drechsler I., Savov A., Schnabl P. The Deposits Channel of Monetary Policy // The Quarterly Journal of Economics. — 2017. — Vol. 132, № 4. — P. 1819–1876. — DOI: 10.1093/qje/qjx019.

3. Kashyap A. K., Rajan R., Stein J. C. Banks as Liquidity Providers: An Explanation for the Coexistence of Lending and Deposit-Taking // The Journal of Finance. — 2002. — Vol. 57, № 1. — P. 33–73. — DOI: 10.1111/1540-6261.00415.

4. Berger A. N., Bouwman C. H. S. Bank Liquidity Creation // The Review of Financial Studies. — 2009. — Vol. 22, № 9. — P. 3779–3837. — DOI: 10.1093/rfs/hhn104.

5. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. — Basel: Bank for International Settlements, 2014. — 17 p. — URL: https://www.bis.org/bcbs/publ/d295.pdf

6. Rahimov A. M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo‘llari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. — 54 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (2020 va 2021-yillar yakunlari). — Toshkent, 2021. — URL: https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/436626/

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (2024 va 2025-yillar yakunlari). — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326177/

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Jami depozitlarning muddatlari bo‘yicha qoldig‘i (2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatiga). — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326195/

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot (depozitlarning valyuta tarkibi, 2025 va 2026-yillar boshiga). — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326186/

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari jamlanma balansi (2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatiga). — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326199/

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi likvidlilik dinamikasi (2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatiga). — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326216/

13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kredit va depozitlari to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326201/

14. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O‘RQ-1031-son “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — 2025-yil 19-fevral. — № 03/25/1031/0160. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-7389404